

Опубликовано на Aloqabank.uz (<http://aloqabank.uz>)

Yuridik shaxslar uchun xabarnoma!

Diqqat!

Hurmatli mijoz!

AT "Aloqabank" Sizga hamkorlik uchun o'z minnatdorchiligini bildiradi va bank faoliyatida amalga oshirilayotgan yangilanishlar haqida ma'lum qiladi.

AT "Aloqabank"ning rivojlanish strategiyasi va transformatsiyasi bankning barcha hududiy bo'linmalarini yagona MFOga o'tkazish, biznes-jarayonlarni avtomatlashtirish, Bazel III talablariga muvofiq ishlab chiqilgan yangi tashkiliy va funksional tuzilmani joriy etish imkoniyatlarini taqdim etuvchi "**Colvir Banking System**" avtomatlashtirilgan bank tizimiga o'tishni nazarda tutadi.

Avtomatlashtirilgan bank tizimini (ABT) yangilash taklif etilayotgan bank mahsulotlari lineykasini kengaytirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish imkonini beradi. Bankning barcha hududiy bo'linmalarining yagona MFOga o'tishi, bank hisobvarag'i ochilish joyidan qat'iy nazar, mijozga bankning istalgan bo'linmalarida bank xizmatlarining to'liq spektridan foydalanish imkonini beradi.

Sizga shuni ma'lum qilamizki, Sizning bank hisobvaraqlaringiz rekvizitlari avtomatik ravishda o'zgartiriladi, shu bilan birga, Sizning joriy rekvizitlaringiz 2021 yilning 2 avgust kundan e'tiboran 12 oy davomida amalda bo'ladi. Yangi rekvizitlarni olish uchun bank ofislariga murojaat qilishingizni so'raymiz.

Yangi ABTga **2021 yilning 30 iyulidan 2021 yilning 1 avgustigacha** bo'lgan davr mobaynida o'tiladi. Shu munosabat bilan, Bank ofislari mijozlarga 2021 yilning 30 iyul kuni soat 12:00 gacha xizmat ko'rsatishini ma'lum qilamiz. 2021 yilning 2 avgustidan esa Bank o'z faoliyatini odatdagi tartibda yangi ABTda davom ettiradi.

Yangi ABTga o'tgunga qadar bank tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqidagi batafsil ma'lumotlar bilan tanishib chiqishingizni so'raymiz.

Yuzaga kelgan savollar bo'yicha **(71) 230-77-77 telefon raqami** orqali bankning **24 soatlik kontakt-markaziga** murojaat qilishingizni so'raymiz.

Bizni tushunganingiz uchun o'z tashakkurimizni izhor etib, kelajakda siz bilan yangi formatda samarali hamkorlikni davom ettirishdan mamnun bo'lamiz!

Yangi ABTga o'tish davrida bank tomonidan amalga oshiriladigan amaliyotlar

RO'YXATI

№	AMALIYOT TURI	VAQTI	SANASI
1.	Hisob-kitob va kassa xizmatlari, shu jumladan Internet-banking orqali	12 ⁰⁰ gacha	30.07.2021
2.	Kreditlar va foizlarni so'ndirish, shu jumladan Internet-banking orqali	12 ⁰⁰ gacha	30.07.2021
3.	Ish haqi loyihalari bo'yicha qaydnomalarni qabul qilish, korporativ kartalarni to'ldirish, shu jumladan Internet-banking orqali	18 ⁰⁰ gacha	28.07.2021
4.	Bank kartalarini chiqarish (ish haqi loyihalari bo'yicha, korporativ kartalar)	18 ⁰⁰ gacha	27.07.2021
5.	Valyuta amaliyotlari bo'yicha buyurtmalar va to'lovlarni qabul qilish, kelgusidagi valyutalash sanasi bilan (sotib olish-sotish, akkreditivlar, SVOP, eksport-import kontraktlari), shu jumladan Internet-banking orqali	18 ⁰⁰ gacha	27.07.2021
6.	Kredit buyurtmalarini qabul qilish	18 ⁰⁰ gacha	27.07.2021
7.	Bank bilan istalgan shartnomalarni tuzish	18 ⁰⁰ gacha	27.07.2021
8.	Boshqa amaliyotlar	18 ⁰⁰ gacha	27.07.2021

Eslatma: o'tish davrida texnik nosozliklar yuzaga kelishi va buning natijasida esa vaqtinchalik tafovutlar

kuzatilishi mumkin (shu jumladan terminallarning daromadlari bo'yicha), bu kabi holatlar bartaraf etiladi.

Bank Raisining mijozlarga murojaati